



OQ JO'XORI (SORGHUM MOENCH) O'SIMLIGI XUSUSIDA

Amonova G. R.

*Osiyo Xalqaro universiteti, o'qituvchisi
(Buxoro, O'zbekiston)*

Annotatsiya: Maqolada Oq jo'xori (*Sorghum Moench*) o'simlikining foydali xususiyatlari, ularning tarkibidagi moddalar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, dorivorlik xususiyatlari va kasalliklarni davolashdagi o'rni bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Oq jo'xori, riboflavin, oqsil, yog', fosfor, lizin, metionin, g'uj, tik, yem-xashak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-martdagи PQ-5017-sон “Tadbirkorlik subyektlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilganda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash muddati uzaytiriladigan tovarlar” qaroriga asosan yannan oq jo'xori urug'ligi (sorgo) hamda oq jo'xorining boshqa turlariga(sorgo) ham imtiyozlar berilmoqda.

Alovida ta'kidlash joizki, tabiiy holda o'suvchi dorivor o'simliklar zaxiralaring chegaralanganligi tufayli kelgusida farmatsevtika sanoati korxonalarining dorivor o'simliklar xom-ashyosiga bo'lgan talabini qondirish, asosan, dorivor o'simliklar yetishtirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Mustaqillikning dastlabki yillardan (1992 y) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan hozirgi vaqtida mamlakatimizda dorivor o'simliklar o'stirish bilan shug'ullanuvchi “Shifobaxsh” IIChM tashkil etilib, uning tarkibida 8 ta ixtisoslashgan xo'jaliklar tashkil qilingan. Bundan tashqari ko'plab o'rmon xo'jaligi tizimida, fermer va boshqa mulkchilik shaklidagi xo'jaliklarda ham dorivor o'simliklarni yetishtirish va ularni xom-ashyosini birlamchi qayta ishslash yo'lga qo'yilgan. Hozirgi paytda Respublikamizda yiliga o'rtacha 850 tonna dorivor o'simliklar xom-ashyosi tayyorlanmoqda, uning 51% dorivor preparatlar ishlab chiqarish uchun, 42 % oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun va 7% texnik xom-ashyo olish uchun ishlatiladi.

Oq jo'xori juda qadimgi o'simlik, u Afrikadan kelib chiqqan. Hozirgi vaqtida ham bu yerda oq jo'xorining yovvoyi turlari uchrashi mumkin. Oq jo'xori Misrda eramizdan 2200-yil oldan ekilaboshlangan. Sharqiy va janubiy Osiyoda, Xitoyda, Hindistonda ham juda qadimdan ekilib asosiy oziq-ovqat va yem-xashak ekini hisoblangan. Yevropada oq jo'xori 15asrdan, Amerikada XVII asrdan ekila boshlandi.

Oq jo'xori navlari guruhining tavsifi.

Xo'jalikda ishlatilishiga qarab, oqjo'xori navlarining quyidagi guruhlariga tafovut qilinadi.

Don jo'xori. U asosan don uchun ekiladi. O'simligining bo'yi har xil, ko'pincha past, odatda bir poyali bo'ladi. Doni ochiq, oson oqlanadi, ovqatga ishlatiladigan navlari oq bo'ladi. Ro'vagi g'uj, tik yoki egik o'sadi. Poyasining o'zagi quruq yoki chuchmal shirasi bor bir oz suvli. Bargining uzunasiga ketgan o'rta tomiri sarg'ish-oq yoki oq. Poyasidagi bo'g'im oralari barg novlariga qaraganda kalta tortilgan. Oq jo'xorining don uchun ekiladigan egilgan g'uj ro'vak chiqaradigan mahalliy navlari (Qo'qon jo'xori) O'zbekistonda keng tarqalgan.



Shirin jo'xori. Sersuv poyasidan patoka olish, lekin ko'pincha yem-xashak tayyorlash va shirali silos bostirish uchun ekiladigan navlari shu guruhga kiradi. Bu navlarining poyasi ancha baland sershira bo'lib, o'zagi shirin. Tuplanuvchanligi yuqori. Doni po'stli yoki chala po'stli, qiyin yanchiladigan bo'ladi. Bargining asosiy tomiri yashil, kul rang yashil yoki oqish surma rang. Poyasining bo'g'im oralari barg novlariga qaraganda uzunroq. Ro'vagi tik o'sadi, ko'pincha sershox bo'ladi.

Supurgi jo'xori. Ro'vagidan supurgi, cho'tka qilishda foydalaniladi. Poyasining bo'yи har xil, o'zagi quruq bo'ladi. Doni doim po'stli bo'lib, qiyin oqlanadi. Bargining asosiy tomiri oq. Ro'vagi uzun (40-90 sm). bir tomonga egilgan, asosiy o'qi bo'lmaydi yoki qisqa bo'ladi.

Tarkibi. Don tarkibida 8,4% oqsil, 3,3% yog', 63,5% azotsiz ekstraktiv moddalar, 130 g kaltsiy, 370 g fosfor, 280 g lizin, 110 g metionin va 100 g triptofan to'planadi. Don tarkibida karotin, B vitaminlari, riboflavin va taninlar mavjud. B guruhi vitaminlari tarkibida jo'xori donasi bug'doyva boshqa don ekinlaridan kam emas.

Ahamiyati. Oq jo'xori oziq-ovqat yemxashak va texnikaviy maqsatlarda foydalilanidigan eng muhim donli ekinlardan biridir. Oq jo'xori donidan un tayyorlanadi. Lekin uning unidan yuqori sifatlari non tayyorlab bo'lmaydi. Shuning uchun oq jo'xori uniga 30-50 % bug'doy uni qo'shib non tayyorlanadi. O'zbekiston sharoitida oq jo'xori qurg'oqchilikka, sho'rga chidamli ekin sifatida katta ahamiyatga ega. Tuproqlari sho'r mintaqalarda Qoraqalpog'iston respublikasi, Xorazm, Buxoro, Navoiy, Sirdaryo, Jizzax viloyatlarida u makkajo'xori va arpaga nisbatan yuqori hosil beradi. Oq jo'xorining doni Markaziy Osiyoda, shu jumladan O'zbekistonda ham ikkinchi jahon urushigacha va 1950-yillargacha asosiy oziq-ovqat ekinlaridan biri hisoblangan. Donidan tansiq milliy taom- go'ja tayyorlanadi. Qoramollar uchun uning doni qimmatli ozuqa, omuxta-yem va kraxmal, spirt ishlab chiqaruvchi sanoat uchun qimmatli xomashyo hisoblanadi. Afrika, Hindiston va Sharqiy Osiyo mamlakatlalarida oq jo'xori hozir ham asosiy oziq-ovqat ekinini hisoblanadi. Oq jo'xori o'simligi o'rolgandan keyin yangi bachki, ya'ni qo'shimcha poyalar hosil qilish xususiyatiga ega. Shu sababli uni bir yilda ikki marta, ba 'zan uch martagacha o'rib olish mumkin. Oq jo'xori erta o'rolganda va tuproqda nam yetishmagan vaqtida o'zining poyasi va barglarida sinil kislotasi hosil qilish xususiyatigaega. Glyukozidlarning parchalanishi natijasida zaharli modda sinil kislotasi hosil bo'ladi. Uning miqdori 0,003 dan 0,31 % gacha 160 bo'lishi mumkin va 0,1 % kuchli zaharli hisoblanadi. Bunday ko'k poya bilan boqilgan mollar zaharlanishi mumkin. Shuning uchun oq jo'xori erta o'rolganda bir oz so'litib yoki quritib mollarga berish kerak. O'simlikning yoshi kattalashishi bilan sinil kislotasining miqdori keskin kamayadi va u parchalanib ketadi. Oq jo'xorini yashil massasidan silos yoki pichan tayyorlashda ishlatiladi. Donining 100 kg da 119, yashil massasida 23,5, silosida 22, pichanida 49,2 ozuqa birligi mavjud. Oq jo'xorining donida 70 % kraxmal, 12 % oqsil, 3,5 % yog' moddalari va bir qator mineral tuzlar mavjud. Uning oqsili lizinga boy bo'ladi. Qandli oq jo'xorining poyalarida 10-12 % shakar qamish shakari va 1,2-2 % glyukoza bo'ladi. Bu navlardan olingan qiyom konserva sanoatida ishlatiladi. Supurgi oq jo'xorining ro'vagidan supurgi va sho'tkalar tayyorlanadi. O'zbekistonda oq jo'xori boshoqli don ekinlaridan bo'shagan dalalarga ang'iz va takroriy ekin sifatida doni, yashil massasi uchun ekiladi. Lalmikorlikda tog' oldi va tog'li mintaqalarda ekiladi. Oq jo'xori agrotexnik ahamiyatga ham ega. U qurg'oqchilikka, tuproq sho'riga chidamli o'simlik hisoblanadi. Uni takroriy ekin sifatida ekish mumkin. Oq jo'xori qator oralari ishlanadigan, chopiq talab o'simlik bo'lganligi uchun boshqa ekinlardan yaxshi o'tmishdosh bo'lib hisoblanadi.

Respublikamizda oq jo'xori asosan 2018 yoldan buyon yetishtirib kelinmoqda birgina misol qilib ayatadigan bo'lsak Qoraqalpog'iston Respublikasida 2018 yili 18120 tonna oq jo'xori ishlab chiqarilgan bu ko'rsatkich 2021 yilga kelib 19987 tonnani tashqil qilmoqda. Buxoro viloyatida 2018 yil 155 tonna 575 tonnani, Jizzax viloyatida 2018 yil 5 tonna 13 tonnani, Toshkent viloyatida 2018 yil 25 tonna 227 tonnani yetishtirib hozirgi kunda o'sish suratlari shu viloyatlarda ko'rinib turibdi.



Respublikamiz miqyosida olib qaraydigan bo'lsak 2018 yil 18 339 tonna yetishtirgan bo'lsa bu ko'rastkich 2021 yilga kelib 20980 tonnani tashkil etdi.

Xulosa: Bundan ko'rinish turibdiki oq jo'xorini aholi istemol qilish talablari ham ortib bormoqda. Hozirgi kunda suvgaga bo'lgan talablar oshib borishi bilan aholi va o'simliklarga chuchik suv yetkazib berish, aholni oziq-ovqat bilan, chorvachilikni yem-xashak bilan taminlashni yanada rivojlanтирish uchun oq jo'xorini joriy etish Respublikamizni iqtisodiyoti uchun ham bir muncha ijobjiy natijalarga olib keladi.

Foydalanimanadabiyotlar ro'yxati.

1. Mustafoyev.S.M. Botanika Toshkent, 2002.
2. G'.H. Hamidov, M.X Akbarova, M.A. Davidov, M.R.Holiquulov "O'zbekiston asalli o'simliklari va asalarichilikning rivojlanish istiqbollari" - Farg'ona 2019.
3. Meliboyev S., Isroilov Z., Abdunazarov. Tursunova Sh. "O'zbekiston florasida uchraydigan dorivor o'simliklar" // Farg'ona nashriyoti 2018 yil.
4. Atabayeva X.N, Xudoyqulov J.B. "O'simlikshunoslik" Toshkent "Fan va texnologiya "nashriyoti 2018-y.
5. Artukmetov Z. A. "Qishloq xo'jaligi asoslari". Toshkent 2012-y.
6. Oripov O.R, Xalilov X.N." O'simlikshunoslik "Toshkent "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat " nashriyoti. 2007-y.
7. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" 1-jild Toshkent 2000-2005 y.
8. Yormatova D.Xushvaqtova. H. Ergasheva.H."O'simlikshunoslik" Toshkent. "Ilm-Ziyo" 2016.
9. Tuyg'unovna, Sh.S.(2024). Tarkibida efir moylar bo'lgan dorivor o'simliklar.Ta'lif va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali 4(3), 164-167.
10. Shukurova, S. (2024). Optimizing synergies: Effective strategies for integrating economic and environmental interests in sustainable development. In E3S Web of Conferences (Vol. 587, p. 04007). EDP Sciences.